

## **XITOIY PRAGMATIZM FALSAFASIDA TRANSENDENT DAOSIZM MUAMMOSINI HAL QILISH**

**Sulaymonov Zufarali Baxtiyor o'g'li**

TDSHU "Sharq falsafasi va madaniyati tarixi" yo'nalishi 2-bosqich magistranti

**Ilmiy rahbari f.f.d., prof. Izzetova E. M.**

### **ANNOTATSIYA**

*XIX asr oxiri – XX asr boshlarida pozitivizm tarmoqlarga bo'lina boshlagan, pragmatizm ulardan biri edi. Taxminan to'rtinchi may harakati davrida pragmatizm Xitoyga kirib kela boshlagan va ko'plab sohalarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ushbu jarayon boshidan to oxirigacha Hu Shi bilan bog'liq edi. Qachonlardir Hu Shi Dyuidan o'rganib pragmatizmning mohiyatini chuqur tushungan, ammo uni an'anaviy falsafa manbalari bilan birlashtirishga uringan. Pragmatizmning joriy etilishi bilan keyingisi unga ko'plab tuzatishlar kiritishga majbur etgan, bu esa pragmatizmning ayrim evrilishlariga sabab bo'lgan.*

**Kalit so'zlar:** *Pozitivizm, pragmatizm, transsendent falsafa, daosizm, Jon Dyui, Charlz Pirz, Hu Shi, transsendent dao, spekulativ falsafa.*

### **ABSTRACT**

*In the late 19th and early 20th centuries, positivism began to divide into branches, and pragmatism was one of them. Around the time of the May Fourth Movement, pragmatism began to enter China and affected many areas. This process was associated with Hu Shi from beginning to end. Hu Shi once learned from Dewey a deep understanding of the essence of pragmatism, but tried to combine it with traditional philosophical sources. With the introduction of pragmatism, the latter was forced to make many adjustments to it, which led to some changes in pragmatism.*

**Keywords:** *Positivism, pragmatism, transcendental philosophy, Taoism, John Dewey, Charles Pierce, Hu Shi, transcendental dao, speculative philosophy.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В конце 19 - начале 20 вв. Позитивизм стал делиться на ветви, и прагматизм был одним из них. Примерно во времена «Движения четвертого мая» прагматизм начал проникать в Китай и затронул многие районы. Этот процесс от начала до конца был связан с Ху Ши. Ху Ши однажды научился у Дьюи глубокому пониманию сути прагматизма, но попытался объединить его с традиционными философскими источниками. С введением прагматизма последний был вынужден внести в него множество корректировок, что привело к некоторым изменениям в прагматизме.*

*Ключевые слова: позитивизм, прагматизм, трансцендентальная философия, даосизм, Джон Дьюи, Чарльз Пирс, Ху Ши, трансцендентальное дао, спекулятивная философия.*

## **KIRISH**

Pozitivizmning tarmogʻi sifatida pragmatizm transsendentlik – koʻrinib turgan olamning anʻanaviy falsafiy muammolari (metafizik deb ataluvchi narsaga) borasida chetlashtirilgan va uzoqlashtirilgan mavqega ega. Pragmatizm asoschisi Pirsda mana bunday gʻoya paydo boʻla boshlagan: “ontologik metafizik fikrlar, agar behuda beʻmanilik boʻlmasa, boshqa soʻzlar bilan taʻriflovchi soʻzdir, soʻz esa boshqa soʻzlar bilan taʻriflanadi, ammo haqiqiy konsepsiyaga erishib boʻlmaydi. Bu – mutlaq beʻmani narsa. Bu holatda pragmatitsizm (faoliyatining soʻngi damlarida Pirs pragmatizmni shunaqa deb nomlagan) oʻziga xos aniq pozitivizm hisoblanadi”.<sup>1</sup> Pirsning yuqorida bayon etilgan qarashlari pragmatizmning falsafadagi asosiy gʻoyasini belgilab bergan. Keyingi bosqichdagi evolyutsion taraqqiyotda amaliy falsafaning shakllanishida u doimiy ravishda kengayib, rivojlanib boradi. Masalan, Jeym qayta-qayta takrorlaganki: “Bu (pragmatizm) barcha tomondagi yechimlar befoyda savollar va metafizik mavhumlikni unkor etishda pozitivizmga mos keladi”.<sup>2</sup> Boshqa pozitivizm maktablari kabi pragmatizm metafizikani chetga surib tashlaydi, u, avvalo, anʻanaviy spekulativ falsafa hisoblanadi. Ular metafizikaning mohiyati toʻgʻrisidagi kuzatilayotgan empirik isbotlar va gumonlardan chekinishga qarshi chiqqanlar, falsafiy fikrlar empiric dalillar bilan bogʻlanishi, asossiz boʻlmasligini talab qilganlar. Umuman olganda, transcendent falsafiy spekulyatsiyalar koʻpincha osongina metafizikaga yorib kiradi: Aflotunning konseptual olami, Gegelning mutlaq konsepsiyasi asosan erkin empirik dalillarning aql-idrokka asoslangan tuzilmasidan kelib chiqadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Pragmatizmning metafizik mavhumligini inkor etish maʼlum maʼnoda ushbu spekulativ falsafaga qarshi ziddi zahar hisoblanadi. Ammo, shuni ham ham taʻkidlash joizki, pragmatizmning anʻanaviy metafizikadan voz kechishi fenomenologiyaga, uning mantiqiy nuqtayi nazariga asoslangan, shu bois azaldan u oʻziga xos nazariy kamchiliklarga ega. Dyuining quyidagi keltirgan dalillaridan buni koʻrish qiyin emas: “Pragmatizm reallik konsepsiyasining asosiy xususiyati shundaki,

<sup>1</sup> Pierce C.S. The Collected Papers of Charles Sanders Pierce, edited by Charles Hardshorne and Paul Weiss, Vol.5 Harvard: The Belknap Press of Harvard University Press, 1978. - P.282.

<sup>2</sup> (AQSh) Jeyms. Pragmatizm/Chen Yuylun, Sun Juyxe tarjimai. Pekin: Shanʼu inshu guan nashriyoti, 1979. B.30.

unda reallikning umumiy nazariyasi haqida o'ylashning keragi yo'q".<sup>3</sup> "Reallining umumiy nazariyasi" deb atalgan narsa nafaqat transsendent metafizikaga, balki falsafaning asosiy muammolariga nisbatan umumiy qarashga ham taaluqli. Bu yerda pragmatizm, aftidan, muammoni inkor etmoqda, unga muvofiq, falsafiy tafakkur (shu jumladan, reallikni tadqiq etish va falsafaning asosiy muammolarini hal qilish) ilmiy kuzatuvlarga va empiric dalillarga asoslanishi lozim, biroq u nazariy tafakkur jarayoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Agar biz empirik dalillarga asoslanib muntazam ravishda empirik dalillarga qaytaverish falsafiy sabsatavozlikni chetlab o'tish uchun zarur shart hisoblanadi desak, nazariy tafakkur falsafa tomonidan tajribaning cheklanganligini yengib o'tishga va fenomenal darajadan zarur darajaga doimiy ravishda ko'tarilishga imkon beradi, olamni(mohiyatni) keng qamrovda chuqurroq tushunishni ta'minlaydi. Pragmatizm falsafani tajriba fenomeni bilan cheklab, bu bilan umumiy reallikni o'rnatish imkonini inkor etadi. Mohiyatan bu metafizikadan voz kechishni, so'ngra dunyoqarashning falsafiy funksiyasini yo'q qilishni anglatadi.

Pragmatizmning yuqorida tilga olingan nuqtayi nazari asosan Xu Shi tomonidan qabul qilingan. Uning fikriga ko'ra, Jon Dyui tomonidan an'anaviy falsafiy muammolarni hal qilish falsafa tarixida inqilob hisoblanadi. "Dyui – falsafa tarixida buyuk inqilobchi. Nima uchun? Chunki u Yum va Kant davridan beri Yevropada mavjud bo'lgan falsafaning asosiy muammolarini barcha ularni muhokama qilishdan ma'no yo'q deb o'ylagan vaqtda hisobdan chiqarib tashladi".<sup>4</sup> Dyui bilan solishtirganda Xu Shi bergan baho ma'lum ma'noda metafizikaning pragmatizm bilan nazariy ma'noda mustahkamlanishiga ancha ochiq ishora qiladi. Ammo, umuman olganda, Xu Shi nega falsafaning asosiy muammolari hisobdan chiqarilishi kerakligi borasida boshqa dalil keltirmaydi. Uning holatida ushbu mavzu nuqtayi nazar sifatida o'zining tafakkuri uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Yuqorida bayon etilganlardan Xu Shi an'anaviy metafizikani o'rganib chiqqanligi ayon bo'ladi. Xu Shi fikricha, an'anaviy xitoy falsafasida daosizm dunyoqarishi metafizika namoyondasi hisoblanadi.

Daosizm daoning tabiiy rivojlanishi yordamida barcha mavjudotning paydo bo'lishini tushuntirishga urinadi va daoni moddiylashtirish g'oyasiga ega. Bunday tafakkur "dao" – bu narsa... agar dao nimadur bo'lsa, oddiy inson aqlida u "qudratli osmon" va "xudo" bilan katta farqqa ega bo'lmaydi deb xato o'ylaydi. Xudo va

<sup>3</sup> Dewey J., A. W. Moore, et al. Creative intelligence: Essays in the Pragmatic Attitude. - New York: Henry Holt and Company, 1917. - P.55.

<sup>4</sup> Xu Shi. Huaynan knyazi kitobi. Shanxay: Simyue shuydan, 1931. - B.29-30.

qudratli osmondan hech narsasi bilan farq qilmaydigan dao transsendent mohiyatdan o'zga narsa emas. Transsendant daodan koinot paydo bo'lgan, bu o'ziga xos spekulyativ struktura hisoblanadi. Bunday metafizik dunyoqarash hayotga tatbiq etilgan vaqtda benihyo halokatli bo'ladi. "Bunday noxolis xulosa chiqarish daoni qadrlaydigan va haqiqatni mensimaydigan dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Bu benihyo halokatli va mutlaq asossiz".<sup>5</sup>

## **XULOSA**

Xu Shining an'anaviy falsafani yuqoridagidek tanqid qilishi faqat metafizikadan yaqqol voz kechish ma'nosiga ega emas. Daodan "metafizik mohiyat" sifatida voz kechish, ayni damda, qudratli osmondan, Xudodan, samoviy oliy qonunlardan va boshqa yot obyektlardan (aslida, Xu Shi buni bir necha marta boshqa joylarda ham takrorlagan) voz kechishni anglatadi, shunday qilib, bu aqidaparastlik kishanlarini ham uzib tashlash talabini o'z ichiga oladi. Transsendent dao bilan maqsad sari intilgan ruhni ushlab turish to'liq bartaraf etilmagan bir sharoitda avvalgidek samoviy oliy tamoyillar izlarini ko'rish mumkin, bunday talab, shubhasiz, asriy ahamiyatga ega edi. Tafakkur yo'lini tahlil qilsak, Xu Shi va Amerika pragmatizmi bir-biridan farqlanadi. Agar Amerika pragmatizmi sinalmagan falsafadan voz kechib, asosan, falsafaning eng muhim muammolarini bartaraf etsa, Xu Shi fikri xulosaning dastlabki shart-sharoithisoblanadi; ushbu tafakkurni turli shakllari ortida ancha chuqur farqlar mavjud: Xushida transsendent spekulyativ falsafani inkor qilish an'anadan ozod etuvchi, aniqlik kirituvchi mazmunga ega.

Agar boshqa nuqtayi nazardan qarасak, Xu Shi tomonidan metafizikaning inkor etilishi boshqa ahamiyatga ega ekanligini ko'rish qiyin emas. Zamonaviy Xitoy falsafasi zamonaviy va qadimiy Xitoy va G'arbning o'zaro birlashishi natijasida bir yo'sinda rivojlangan. Bir tomondan, hali ham an'anadagi muhim hayotiy omillar g'arb fani va demokratiyasi bilan doimiy ravishda tutashgan, boshqa tomondan, an'anaga kerak bo'lmagan narsalar yangisiga o'xshagan avvalgi shakliga qaytib, ko'pincha g'arb ilmining salbiy tomonlari bilan qo'shilib ketgan.

## **REFERENCES**

1. Pierce C.S. The Collected Papers of Charles Sanders Pierce, edited by Charles Hardshorne and Paul Weiss, Vol.5 Harvard: The Belknap Press of Harvard University Press, 1978. - P.282.
2. Jeyms. Pragmatizm/Chen Yuylun, Sun Juyxe tarjiması. Pekin: Shan'u inshu guan nashriyoti, 1979. B.30.

<sup>5</sup> Xu Shi. Huaynan knyazi kitobi. Shanxay: Simyue shuydan, 1931. - B.32.

3. Dewey J., A. W. Moore, et al. Creative intelligence: Essays in the Pragmatic Attitude. - New York: Henry Holt and Company, 1917. - P.55.
4. Xu Shi. Huaynan knyazi kitobi. Shanxay: Simyue shuydan, 1931. - B.29-30.
5. O'G'Li, S. Z. B. (2021). HU SHINING IJODIY FAOLIYATINING ASOSIY BOSQICHLARI VA FALSAFIY QARASHLARINING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(2).
6. Sulaymonov, J. B. (2021). XITOIY BUDDAVIYLIGI TA'LIMOTIDA BORLIQ VA BILISH MUAMMOLARINING QO 'YILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 572-579.
7. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 135-141.
8. Пўлатова, Д. А. (2021). КОНФУЦИЙЧИЛИКДА ИНСОН МУАММОСИНИНГ ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 547-555.